

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

«IJTIMOIY FANLAR» *kafedrası*

**“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati”
FANIDAN
SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN**

USLUBIY KO‘RSATMA

JIZZAX 2020

“Tavsiya etilgan”

“IJTIMOIY FANLAR” kafedrası

majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri dots. P.Qulmatov

kafedra majlisining 1-sonli bayonnomasi

Жиз. ПИ “Ўзбекистон тарихи ижтимоий
фанлар” кафедраси



доц. П.Қулматов

Taqrizchi: dots. A.Saydqosimov

Tuzuvchi: Xidirov X.I. “O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar – J.: Jizzax PI, 2020 yil.

Kirish

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanining asosiy **maqsadi** - jamiyatning siyosiy tizimi, ijtimoiy, siyosiy jarayonlar va siyosiy hokimiyat hamda uning tarkibiy qismlari, siyosiy partiyalar, va boshqa ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar ularning o‘zaro munosabatlarini chuqur tahliliy o‘rganish. Shuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan demokratik fuqarolik jamiyat qurish nazariy asoslarining ishlab chiqilishi. Uni tahliliy o‘rganishni taqozo etuvchi shart-sharoitlar va omillar talabalarga chuqur o‘rgatiladi.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda yangi tarixiy davrning boshlanishi, 2017-2021 yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining mohiyatini chuqur urganish hamda Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoevning demokratik fuqarolik jamiyati qurish bilan bog‘liq nazariy asoslarning ishlab chiqilishini ilmiy ijodiy asosda o‘rganish.

Har biri mavzu yakunida ta‘lim texnologiyalari keltirilgan bo‘lib, ularni qo‘llash bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. SHuningdek, mazkur fandan ishlab chiqilgan o‘quv - uslubiy majmua (O‘UM) da bayon etilgan.

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda faol ishtirok etish.
- Birinchi Prezident I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan demokratik islohotlar bilan bog‘liq bilim va malakalarini oshirish.
- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoevning saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari urganish
- 2017-2021yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining mohiyatini chuqur o‘rganish.
- Talabada O‘zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida, mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni haqidagi tushunchalarni berish.

Mazkur fanni urganish uchun bakalavr - iqtisodchi davlat ta‘lim standartlarida ko‘zda tutilgan barcha ijtimoiy - gumanitar fanlar bilan bevosita aloqada bo‘ladi. “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanining ma‘ruza mashg‘ulotlarida kerakli ma‘lumotlar ko‘rgazmali ravishda taqdim etiladi hamda boshqa yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalaniladi.

Talabalarning mustaqil o‘qishi, ma‘ruza tinglashi va boshqa pedtexnologiyalardan unumli foydalanishi, ularning olgan tegishli ma‘lumotlarini, bilim va malakalarini yaxlit tizimga keltiradi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsadi - Fanni o‘qitishning maqadi - talabalarga O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Xarakatlar strategiyasining

maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida olib borilayotgan islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari to'grisida chuqur bilim berish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy taxlil va shaxsiy mas'uliyatini shakllantirishdan

Fanning vazifalari:

Fanning vazifasi O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Xarakatlar strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini tushuntirish; fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslari tugrisidagi tasavvurlarini boyitishdan iborat. Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quydagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish "Xarakatlar strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlari, fuqarolik jamiyatining shakllanish asoslari, fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslari, fukaroviylik, fukarollik jamiyati institutlari, saylov xukuki erkinligi, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy sheriklik, davlat xususiy sheriklik, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochikligi tugrisida *tasavvurga ega bulish*;
- "Inson manfaatlari xamma narsadan ustun", "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat kilishi kerak", "Xalq boy bulsa, davlat boy va kudratli bo'ladi" kabi konseptual g'oyalarning mazmun mohiyatini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha "Xarakatlar strategiyasi"da belgilangan asosiy yo'nalishlar va vazifalarni *bilishi vaulardan foydalana olishi*;
- O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish buyicha uzining takliflarini bera olish, mamlakatimiz erishayotgan yutuklar va ularning xalqaro miqyosda e'tirof etilishini taxlil qila olish *kunikmalariga ega bo'lishi kerak*.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati"o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalaroirasida bakalavr:

- demokratik jamiyat to'g'risida nazariy bilimlar va ularning O'zbekistonda qo'llanilishi to'g'risida;
- O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoni xaqida;jamiyatning sotsial madaniy taraqqiyoti to'g'risida;

- xalqda madaniy, ijtimoiy, siyosiy tasavvurlar shakllanishi vaaraqqiyyoti to'g'risida;

- demokratik boshqaruv strategiyasi va etikasi haqida; demokratik taraqqiyotning o'zbek modeli haqida;

- o'tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiyajribalardan foydalanish;

- demokratik davlat boshqaruv nazariyasi bo'yicha tasavvurga egabo'lishi;

- davlat hokimiyati organlari tizimini bilishi;

- demokratik davlat boshqaruvi tuzilmasini;

- demokratik davlat qurilishi nazariyasi mohiyatini bilishiva foydalana olishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani o'quv rejasidagi "Sotsiologiya", "O'zbekiston tarixi", "Huquqshunoslik", "Falsafa", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq. Mazkur fanlar shaxsningsiyosiy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarda demokratik, umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fan sohasida egallangan bilimlar insonning maqsadini aniqlashda, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmasini shakllantirishda, huquqiy tenglikka amal qilishga, ijodiy faoliyati jarayonida burch vamas'uliyatni his qilishga ijobiy ta'sir qiladi. Insonning dunyoda o'zo'rnini anglashda, maqsadli faoliyat yuritishda, demokratik jamiyattaraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda namoyon bo'ladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, matbuotkonferensiyasi, taqdimot kabi zamonaviy pedagogik texnologiyavositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fanni o'zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turlishakllaridan, zamonaviy elektron texnika vositalaridan, ko'rgazmaliqurollardan keng foydalaniladi.

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor

masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI

1-mavzu: : Fuqarolik jamiyatini qurish-strategik maqsad.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi - kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma'lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiylikligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukldlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysikijamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi.

ijtimoiy-siyosiy asos - mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, Hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar

qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. "Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari" tamoyilining namoyon bo'lishi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi".

huquqiy asosi - inson uchun ahamiyatli bo'lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta'minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olinishi. "Qonun hukumron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi" (A.Temur). "Adolat - qonun ustuvorligida" tamoyilining amal qilinishi. .."Fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo'lib, hech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari bshqa fuqarolarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim".

ma'naviy asos - insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. "Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi"

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

2-MAVZU: XARAKATLAR STRATEGIYASI – O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g'oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi G'arb tamaddunimahsuli sifatida amaliyotga tadbiiq etilmoqda deb hisoblamogdalar, aslida Sharq mamlakatalarimutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida sharq mamlakatlari etakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'rat umumbashariydir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazaruning rivojiga hissalarini qo'shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalar, bilimlar bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish noto'g'ri yondoshuvdir.

Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining yorqin namunasi "Avesto" muqaddas kitobida izchil yoritilgan. 2001 yildamillat ma'naviy madaniyatining eng qadimgimanbasi "Avesto"ning 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: " ... bu noyob asar bebaho tarixiy xujjat bo'lib, u biz yashagan bu qadim yurtida, bu zaminda o'zining madaniyati va boy ma'naviyatiga ega bo'lgan buyuk davlat bo'lganligidan, ajdodlarimizga, asrlar davomida bitmas tuganmas quch vaqudrat va tayanch sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi" debalohida e'tirof etgan. Darhaqiqat, "Avesto"ning bosh g'oyasi "ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal" har qanday jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma'naviy asosi ekanligidan dalolatdir. Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati

nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning echimini chuqur anglashni taqozo etadi.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

3-MAVZU: DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma'no-mazmuni. Hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipi. Hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish. Sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, ikki palatali milliy parlamentning vujudga kelishi. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun-mohiyati. Ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi. Davlat hokimiyatining uchta subekti, ya'ni davlat boshlig'i - Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning mutanosib taqsimlanishining ta'minlashi. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiyaning Bosh vazir nomzodining ko'rsatishi va uning parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi. Siyosiy tizimni modernizatsiya qilishni takomillashtirish jarayoni. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar va uning ahamiyati.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

4-MAVZU: QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD- HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi. O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. "Qonun ustuvorligi" tushunchasi. O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili. Prezidentlik instituti. Qonun chiqaruvchi. Qonunchilik palatasi va Senat. Vazirlar Mahkamasi. Ijro etuvchi va sud hokimiyati. Sud mustaqilligi. Davlat organlarining vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Davlat hokimiyati organlari mustaqilligining amal qilishi va mas'uliyati.

Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishining umumiy tamoyil ekanligi.

Konstitutsiyaga va demokratiyaga zid bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bekor qilinishi lozimligi tamoyili. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish zaruriyati. Qonun ustuvorligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqilishi. Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishi. Demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi. Bozor iqtisodiyoti asoslarining qonunchilik bazasini shakllantirilishi.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI.

Demokratik jamiyatda "iqtisodiy hayotni erkinlashtirish" tushunchasi va mazmuni. Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish – demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti ekanligi. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruv vakolatlarini cheklash va nomarkazlashtirish. Siyosiy islohotlarni takomillashtirish va iqtisodiy taraqqiyot. Islom Karimovning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi to'g'risidagi konsepsiyasi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Xususiy mulk va mulkdor. Iste'molchilar huquqlari va tanlash erkinligining ustunligi. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni.

O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish.

Bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Xususiy sektor miqyoslarini kengaytirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish. Tadbirkorlik tizimida oilaviy biznesning o'rni. Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta bozori. O'rta mulkdorlar qatlamini rivojlantirish. Tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash – demokratik jamiyat barqaror rivojining zaruriy sharti.

Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilish. Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlash. Mulkdorlar huquqlarining kafolatlari ta'minlanishni takomillashtirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish. Bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning qonunchilik bazasini shakllantirish. «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilinishi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi mazmun-mohiyati. Iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish demokratik jamiyat qurishning sharti ekanligi.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

6-MAVZU. IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari. Ularning mazmun va mohiyati. “Adolat” va “tenglik”ning umuminsoniy demokratik qadriyatlar ekanligi. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va himoya haqidagi g'oyalari va qarashlari.

O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoyani jamiyatda tartib, uyg'unlik va barqaror taraqqiyotini ta'minlash omili sifatida qaralishining asoslari.

Birinchi Prezident Islom Karimovning mamlakatimizda huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish to'g'risidagi konsepsiyasi. Ijtimoiy himoya g'oyasining adolat va liberal demokratiya g'oyalari bilan bog'liqligi. Himoyaga muhtoj sotsial guruhlarining ijtimoiy holati. Ijtimoiy adolat va bozor munosabatlari.

Demokratik jamiyatda adolat va ijtimoiy himoyaning mushtarakligi. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosati: uning maqsadi, bosqichlari, xususiyatlari, rivojlanishi.

Demokratik jamiyatda turli qatlamlar, guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirishda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyani amalga oshirishning barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi ahamiyati.

Demokratik jamiyatda oila institutining o'ziga xosligi. Oilada demokratik ong, tafakkur va hayotning dastlabki shakllarining qaror topishi. Oilaning huquqiy demokratik asoslari. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining o'sib borishi. Sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirilishi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

7-MAVZU: XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH.

O'zbekiston o'zining ko'p asrlik tarixida qadim-qadimdan ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali mamlakat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Turli millat va dinga mansub millionlab kishilar o'z taqdirларini va kelajaklarini O'zbekiston bilan bog'lab, bu qadimiy saxiy zaminda tinch- totuv yashamoqdalar". Bizga ma'lumki, ko'pmillatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng katta qadryatimiz, bu - jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kundagi yana bir muhim vazifa mamlakatimizda millatlararo va konfessilararo totuvlik g'oyasining doimiy ustuvor bo'lishini ta'minlash bilan bog'liq. Bunda insonparvar, adolatli, huquqiy jamiyat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz aholisi ongida har bir millatning o'z milliy madaniyati borligini, har bir etnos, etnik guruh dunyoda yagona ekanini, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, zinhor birini boshqasidan ustun qo'yish mumkin emasligini nazardan qochirmaslik nihoyatda muhim hisoblanadi.

Hozirgi global o'zgarishlar sharoitida dunyoning qaysi bir nuqtasiga nazar tashlamaylik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning milliy va millatlararo munosabatlarga bog'liqligi va aloqadorligini ko'ramiz. SHu boisdan bugungi kunda respublikamizdagi mavjud millatlararo totuvlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirish, mazkur jarayonga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etishga doir amaliy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish hamda takomillashtirib borish zaruriyati ortib bormoqda. Jahon hamjamiyati va demokratik jarayonlar. BMT va O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston - AQSH

strategik hamkorligi. O'zbekistonning Evropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarda demokratik institutlarni rivojlanishi. MDH davlatlaridagi demokratik islohotlarning rivojlanish jarayoni. O'zbekiston-Rossiya munosabatlari. O'zbekiston Respublikasining SHanxay hamkorlik tashkilotidagi o'рни. Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashida o'zaro hamkorlikning ahamiyati. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligini rivojlantirish zaruriyatini ko'chayishi. Demokratiyaning umuminsoniy tamoyillarini rivojlantirishda davlatlararo hamkorlik. Fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishda hamkorlik. Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi tizimida milliy manfaatlarning ustuvorligi. Xalqaro terrorizmning demokratiyaga, jahon hamjamiyati hamkorligiga tahdid soluvchi kuch ekanligi. Uni bartaraf etishda jahon hamjamiyati hamkorligining o'рни. Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining rivojlanishi va istiqbollari. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston mavqeining oshib borishi.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

8-MAVZU: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH - FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI.

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson hukuklari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik kiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga taxdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshka hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi.

Ushbu illatga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida 2008 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 13 oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi" Konvensiyasini ratifikatsiya qildi, shuningdek, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. **Korrupsiya o'zi nima?** Korrupsiya bu - mansab, mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini

qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, mansabdor shaxslargina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora emas, balki boshqa narsalar evaziga o'z ehtiyoj va manfaatlarini ham amalga oshirishlari mumkin. Darhaqiqat, korrupsiya - ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Bu korrupsiyaga qarshi avvalo ma'muriy- huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rilishini taqozo etadi. Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. YUridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya - mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat".

Korrupsiya jinoyatchiligi - sinfiy va tarixan o'zgaruvchan hodisa. E.I.Kairjanov fikriga ko'ra, "jinoyatchilik tushunchasi xususiy mulk paydo bo'lishi va jamiyat antagonistik sinflarga parchalanishi natijasida vujudga kelganini hech kim inkor eta olmaydi. Sinfiy jamiyat paydo bo'lishidan oldin jinoyat tushunchasi ham, jinoyatchilik ham mavjud bo'lmagan".

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

9-MAVZU: FUQARO, FUQAROVIIYLIK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI.

Бугунги кунда «фуқаро», «фуқаролик», «фуқаролик жамияти», «фуқаролик масъулияти», «фуқаро ҳуқуқлари ва эркинликлари» тушунчалари демократик ривожланишнинг зарурий шартларидан бирига айланмоқда. Бинобарин, демократия ва фуқаро эркинлиги ҳамда, унинг фаоллигини таъминлаш масалалари долзарб бўлиб қолмоқда. Фуқаролик тушунчаси жамиятнинг ҳозирги давригача, яъни, ҳуқуқий давлат томон ривожланишида катта йўлни босиб ўтди. У жамиятнинг демократик ривожланишида қўлга киритилган улкан ютуқлардан бири.

Фуқаролик тушунчаси қадимий Юнонистонда ва Римда мавжуд бўлсада, асосан феодализм инқирозга учраб, жамиятдаги сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаёт демократия ва бозор муносабатлари заминига ўта бошлаганда, ҳозирги шаклида пайдо бўла бошлади ва илк бор «шаҳарлик» (француз «ситуайян», инглизча «ситезен», русча «горожанин-гражданин») деган маъноларни англатган. Мустақиллик эълон қилингандан сўнг, ўзбек тилида ўтмишдаги «гражданлик» сўзи ўрнига «фуқаролик» деган атама қабул қилинди. Фуқаро ҳуқуқларини таъминлашда инсоннинг табиий ҳуқуқларини эътиборга олиш муҳим аҳамиятга эгадир. Қадимги антик файласуфлар

талқинича, табиий ҳуқуқ табиатга боғлиқ ҳолда инсонлар туғилишлариданок бир хилдирлар. Ижтимоий шартномалар асосида қонун ва давлат пайдо бўлди. Арестотельнинг фикрича, инсоннинг туғилишиданок пайдо бўлган хусусий мулкга бўлган табиий ҳуқуқи унинг табиати ва унинг дастлабки ўзини ўзисевишига асосланади. Қолаверса, ана шу табиий ҳуқуқни таъминлашга интилиш, хусусий мулк жозибаси, уни сақлаш ва қўпайтириш манфаатлари инсоннинг жамиятда тезлик билан ижтимоийлашувига ва фаоллашувига олиб келди.

Тор маънода, инсон ҳуқуқлари тушунчасига фақат давлат ҳимоя қиладиган ва кафолатланадиган ҳуқуқлар кириб, ҳозирги даврда уларни конституцион ҳуқуқий асосий ёки давлати чегаралари билан чеклаб қўйиш осон вазифа эмас. Бу ҳуқуқларга барча фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, яшаш ва жисмоний дахлсизлик ҳуқуқи инсон кадр-қиматини ҳурмат қилиш, Ўзбошимчалик ва ноқонуний ушлаш ёки қамаш, виждон ва дин эркинлиги, ота-оналарнинг Ўз болаларини тарбия қилиш ҳуқуқлари, зулумкорларга қаршилик қилиш ҳуқуқи ва бошқалар киради. Кенг маънодаги инсон ҳуқуқлари эса, ўзида шахс эркинлиги ва ҳуқуқларининг кенг мажмуаси ва турларини ифодалайди.

10-MAVZU: SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI - FUQAROLIK JAMIYATINING SHARTI

Fuqarolarning saylovlarda va boshqa siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biridir. «Saylovlar - bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy me'yorlarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir». Demokratik saylovlar orqali demokratik mezonlar amalga tatbiq etiladi, xalqning ishonchli vakili hokimiyat tepasiga keladi, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi, orzu-umidlari ro'yobga chiqadi.

Saylov xalq hokimiyatchiligining timsoli bo'lib, eng avvalo o'zida jamiyat a'zolarining, qolaversa saylovchi - fuqaro manfaatini ifoda etadi. Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarda saylovlarning o'рни beqiyosdir. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining hozirgi bosqichida davlat hokimiyatining vakillik organlarini erkin, qonuniy va adolatli saylovlar asosida shakllantirilishi demokratik jarayonlar va yangilanishlarning ijtimoiy hayotda oliy qadriyat sifatida ifoda etilayotganligining yorqin namunasidir. Saylovlar, referendum kabi, xalq irodasini to'g'ridan-to'g'ri namoyon etilishining qonunlashtirilgan shaklidir. Saylovlar orqali fuqarolar davlat hokimiyati

organlarining shakllanishida ishtirok etadilar va bu bilan davlat boshqaruvidagi o'zining Konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyati bilan saylovlarning aloqadorligi asosan shu bilan belgilanadiki, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning fikrlari va manfaatlarining xilma-xilligiga asoslangan holda, tashkil etiladi, davlat organlari fuqarolarning ishtiroki bilan adolatli saylovlar asosida tashkil etilmaydigan bo'lsa, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda qonunga itoat etishini ta'minlashga, o'tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qochib-qutilishga imkoniyat bo'lmaydi, Demokratik saylovlar - hokimiyat masalasining kuch bilan hal etilishini tamoman inkor etadi. Bu borada Prezidentimiz, "Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai- madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi" deb ta'kidlaydilar.

Saylovlar bevosita jamiyatning siyosiy tizimini aks ettiradi va o'z tomonidan unga ta'sir ko'rsatadi. Ularning tashkil etilishi va ovoz berishning yakunlarini aniqlash tartibiga tegishli barcha jarayonlar siyosiy partiyalar bilan yaqindan bog'liqdir. Respublikamiz Prezidenti ta'kidlaganidek: "Aynan saylov paytida partiyalar o'zining asosiy va ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islohotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarini ilgari suradi". Saylovlar fuqarolarga hokimiyat uchun kurashayotgan siyosiy partiyalarning dasturlarini haqiqiy mazmun-mohiyatini anglashga imkoniyat beradi. Faqatgina saylovlar orqali xalqning ko'pchiligining irodasi aniqlanadi, uning asosida esa demokratik hokimiyat yaratiladi.

11- MAVZU. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mahalliy xokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zni. Mahalliy davlat hokimiyatining asoslari. Mamlakatimizda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning shakllari. Ularning fuqarolik jamiyati qurishdagi roli. Mahalla – fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish negizi sifatida.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini-o'zi boshqarish tizimining tiklanishi va rivojlanishi. Boshqaruvni nomarkazlashtirishni takomillashuvi. Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida. Mahallaning fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'zni. Mahalliy davlat hokimiyati ayrim vakolatlarini o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tib borish jarayoni. Uning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish. «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishining ahamiyati. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

12-MAVZU. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan yoki jamoatchilik nazorati etarli darajada kuchga ega bo'lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin. SHuning uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida jamoatchilik nazoratining mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvida ishtirok etishlarining muhim vositasi ekani e'tirof etilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunni qabul qilish zarurligi alohida ta'kidlandi: "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi.”¹

Jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalarini tahlil qilishdan avval "jamoatchilik nazorati" tushunchasining turdosh tushunchalar bilan umumiy jihatlari va tafovutlarini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda matbuotda va ilmiy adabiyotlarda "jamoatchilik nazorati", "ijtimoiy nazorat", "fuqarolik nazorati" kabi atamalar ishlatilmoqda. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur atamalar ko'pincha sinonim sifatida va ba'zan noo'rin qo'llanilmoqda.

"Jamoatchilik nazorati" va "fuqarolik nazorati" tushunchalari bir-biriga juda yaqinday tuyuladi. Aslida ular o'rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda jiddiy tafovutlar ham mavjud. Ular o'rtasidagi tafovutlar avvalo shundan iboratki, harbiy yuristlarning fikriga ko'ra, fuqarolik nazorati armiya faoliyati ustidan jamoat tashkilotlari olib borayotgan nazoratni anglatadi. Masalan, bizning

mamlakatimizda Mudofaa vazirligi qoshida tuzilgan Jamoatchilik kengashi ana shunday nazoratni amalga oshiradi. SHu ma'noda fuqarolik nazorati noharbiy tashkilotlar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining mamlakatimiz qonunlariga mosligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni bildiradi. Ikkinchidan, fuqarolik nazorati alohida shaxslar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining Konstitutsiyaga, xalqaro shartnomalarga mosligi, shuningdek, Qurolli kuchlar tizimidagi ijtimoiy masalalarning huquqiy me'yorlarga mosligi ustidan o'tkaziladigan nazoratni ham bildiradi. "Jamoatchilik nazorati" va "fuqarolik nazorati" tushunchalari o'rtasidagi tafovut xuddi mana shu o'rinda ko'rinadi. Fuqarolik nazoratini hech bir jamoat birlashmasiga a'zo bo'lmagan fuqaro ham amalga oshirishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini esa alohida fuqarolar emas, jamoat birlashmalari va ularning vakillari amalga oshiradi.

"Jamoatchilik nazorati" va "ijtimoiy nazorat" tushunchalari o'rtasidagi tafovut avvalo, shundaki, "ijtimoiy nazorat" tushunchasi mazmun doirasiga ko'ra "jamoatchilik nazorati" tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga "jamoatchilik nazorati" tushunchasidan tashqari davlat nazorati va fuqarolik nazorati ham kiradi. Chunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko'rinishlaridir.

Jamoatchilik nazoratiga turli-tumanta'riflar berilgan. Jamoatchilik nazoratining asosiy xususiyatlarini qamrab oladigan quyidagicha ta'rifdan foydalanish o'rinliroq bo'ladi: "Jamoatchilik nazorati — jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo'yicha yuritadigan faoliyat".

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

13-MAVZU. IJTIMOIIY SHERIKLIK.

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtirolardan biridir. Insoniyat ijtimoiy sheriklikning zarurligini anglab etishi uchun ko'p asrlar kerak bo'ldi. Bu jarayonda uzoq davom etgan konfrontatsiyani, murosasiz kurashlarni, keskin ijtimoiy nizolarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi.

"Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi ijtimoiy fanlarga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu tushuncha dastavval mehnat munosabatlari doirasida va ularni tartibga solish maqsadida yaratildi. Kapital bilan mehnat, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bo'lsa ham, ularni tartibga soladigan ijtimoiy sheriklikning zarurligi va

mumkinligini XIX asrning oxirlari- XX asr boshlariga kelibgina anglay boshlandi. Bu davrgacha ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar goh pasayib, goh kuchayib davom etaverdi. Bu ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi munosabatlar, ya'ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan edi. O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "... - bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu - "Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi".

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

14-MAVZU. FAOL FUQAROLIK POZITSIYASIGA EGA BO'LGAN ÈSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Ijtimoiy sheriklik g'oyasi ijtimoiy va siyosiy sohada insoniyat kashf qilgan eng buyuk ixtirolardan biridir. Insoniyat ijtimoiy sheriklikning zururligini anglab etishi uchun ko'p asrlar kerak bo'ldi. Bu jarayonda uzoq davom etgan konfrontatsiyani, murosasiz kurashlarni, keskin ijtimoiy nizolarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi.

"Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi ijtimoiy fanlarga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu tushuncha dastavval mehnat munosabatlari doirasida va ularni tartibga solish maqsadida yaratildi. Kapital bilan mehnat, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bo'lsa ham, ularni tartibga soladigan ijtimoiy sheriklikning zarurligi va mumkinligini XIX asrning oxirlari- XX asr boshlariga kelibgina anglay boshlandi. Bu davrgacha ijtimoiy mehnat jarayonlaridagi ziddiyatlar goh pasayib, goh kuchayib davom etaverdi. Bu ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlarning negizini

tashkil etuvchi munosabatlar, ya'ni ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida vujudga kelgan edi. O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "... - bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'zni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu - "Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalga hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi".

Qullaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik: yondashuv, muammoli ta'lim, aqliy xujum, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish, sinkveyn, klaster, esse.

Adabiyotlar: R 1-5, D 1-8, Q 1-13, E 1-5.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanibo'yicha seminar mashg'ulotlarida ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirishva chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishva bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida ikkitomonlama yaqin aloqa o'rnatiladi, jonli suhbat olib boriladi, o'zarofikr almashish va turlicha qarashlarni ifoda etish jarayonida fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini amalga oshiradi. Bunday zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari qo'l keladi. Bu usullar yordamida o'tkazilgan seminar mashg'ulotlaridan asosiy maqsad – talabalarning faol ishlashi va mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini baholash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, mustaqil ishlash hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadantashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim vako'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba

mustaqil ishnitayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holdaquyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ☐ darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari vamavzularini o'rganish;
- ☐ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- ☐ mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- ☐ maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ☐ fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
- ☐ talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- ☐ faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- ☐ masofaviy (distansion) ta'lim.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruzatayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllardatashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashdama'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakatqilinishi lozim.

TAVSIYA ETILADIGAN MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:

1. 2017-2021 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining maqsadi.
2. 2017-2021 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari.
3. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati.
4. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari.
6. Ijtimoiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish.
7. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash .
8. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillari.
9. Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro munosabatlari.
10. Yoshlar muammolarini xal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
11. Mahalliy boshqaruvda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
12. Vertual qabulxonalar- jamiyatni demokratlashtirish me'zoni.
13. Xalq qabulxonolari ijtimoiy institute sifatida.
14. Maxalla fuqarolik jamiyati institute sifatida. (O'zingiz yashayotgan maxalla faoliyati misolida tahlilni amalga oshiring.)
15. Fuqarolik jamiyati institutlari oldida turgan dolzarb muammolarni tahlil qiling. (Biror bir institut faoliyati misolida).

Izoh: Muataqil ish mavzulari fanning bo'limlari bo'yicha ishchi dasturi shakllantirilayotganda mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos xolda foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

“O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini o'qitishda zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot shaklida, elektron-didaktik) texnologiyalarni qo'llanishinazarda tutiladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanida elektron darslikdan, mavzuga oid kompakt-disklardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

“O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan barcha yo'nalish talabalari bilimini reyting tizimi asosida baholash MEZONI Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari

Mazkur mezon 2018-2019 o'quv yilida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan talabalarining bilimini nazorat qilish hamda baholashda qo'llaniladi.

Talabalar “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan baholash mezoni bilan birinchi mashg'ulotda tanishtiriladi.

Talabalar bilimini baholashda shuningdek, referatlar va mustaqil ta'lim ishlarini himoya qilish bo'yicha mezonda belgilangan baholash mezonlari qo'llaniladi.

Nazorat turlari va baholash mezonlari

Nazorat turlari

“O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi. Oraliq nazorat turi 2 marta o'tkaziladi. “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan oraliq nazoratini o'tkazish shakli, oraliq nazorat turining topshiriqlari fan o'qituvchilari tomonidan belgilanadi. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi. “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanidan yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan o'qituvchisi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

Talabalarining bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Talabalar bilimini baholash

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanidan o'quv mashg'ulotlarini olib borgan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

"O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati”fani baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish huquqiga ega.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati”fanidan talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, baholash natijasi e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Talabaning apellyatsiyasini ko‘rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish					
JADVALI					
5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!. Mualliflar jamoasi. T.: Muxarrir. 2018.
2. Bekmurodov M. va boshqalar. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. T.: Gofur Gulom NMIU. 2017.
3. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. -T.: Shark, 2003.
4. Qirgizboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. - T.: O'zbekiston, 2010.
5. O'tamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati. O'quv qullanma. Lotin yozuvida. T.: Universitet. 2018. 21 b.t.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar.-T.: O'zbekiston, 1996-2016.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qushma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahdil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-104 b.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: "O'zbekiston", 2017. -48 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-491 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezideitining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tugrisida"gi Farmoni //Xalq suzi, 2017, 8 fevral.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezideitining 2017 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PF-5185-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezideitining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 22 dekabr 2017 yil. Xalq suzi gazetasining 2017 yil 23 dekabr № 258 (6952)-soni.
9. "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari tugrisida" O'zbekiston Respublikasi Prezideitining PF-5430-son Farmoni. -T.: 2018 yil 4 may.
10. Avesto. Tarixiy –adabiy yodgorlik. - T.: Shark, 2001.
11. Aristotel. Politika. - M.: ACT, 2006.
12. Aflotun. Qonunlar. Urfon Otajon tarjimasi. - T.: YAngi asr avlodi, 2002.-458 bet.
13. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari. - T.: Akademiya, 2008.
14. Gulomov M. Maxalla - fuqarolik jamiyatining asosi. - T.: Adolat, 2003.
15. Berk E. Pravlenie, politika i obshchestvo / per. s angl. - Kanon-Press- Sentr, 2001.
16. Beruniy Abu Rayxon. 100 xikmat: ibratli suzlar. - T.: Fan, 1993.
17. Bobur. Boburnoma. - T.: Yulduzcha. 1989.
18. Butaev U. Jamiyat barkarorligi: O'zbekiston tajribasi. T.: Fan va texnologiyalar. 2017. 11.9 b.t.
19. Gegel G.V.F. Filosofiya prava / Per. B.G. Stolpnera, M.I. Levinoy; Sost. D.A. Kerimov, B.C. Nersesyans. - M.: Misl, 1990.
20. Gobbs T. Levafan ili materiya, forma i vlast gosudarstva serkovnogo i grajdanskogo. - M.: Sotseskiz «Obrazsovaya», 1936.
21. Jalilov SH. Fuqarolik jamiyatining poydevori. - T.: O'zbekiston, 2003.
22. Jalilov A. boshkalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. - T.: Baktريا press, 2015.
23. Ibn Sina. Izbrannyye filosofskie proizvedeniya / Otv. red. Asimov M.S.-M.: Nauka, 1980.
24. Qirgizboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkurapar, siysiy madaniyatlar. - T.: Shark. 1998.
25. Qirgizboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - T.: YAngi asr avlodi, 2006.
26. Koen Dj., Arato E. Grajdanskoe obshchestvo i politicheskaya teoriya. Per. s angl. - M.: 2003.
27. Nishanbaeva E.Z. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik tamoyillari. - T.: SHark, 2015.
28. R.Murtazaeva, A.Utamuradov, O.Musaev, D.Inoyatova Jamiyat rivojida fukarolarning uzini uzi boshkarish organlar faoliyatini takomillashtirish. Uslubiy kullanma. T.: Turon. 7,5 b.t. 2018.

29. Mavlonov J.Yo. Grajdanskoe obshestvo: ot konsepta k konsepsiyam i paradigmam (sotsialno-filosofskiy analiz). Monografiya. - T.: Istikdol nuri, 2014.
30. Mavlonov J.Yo. Kommunikativnie osnovi deyatelnosti institutov grajdanskogo obshestva: tendensii i innovatsii. Monografiya. - T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
31. Malikova G.R. Fuqarolar uzini uzi boshkarish organlari – milliy demokratik institut / Mas’ul muxarrir A.X. Saidov. - T.: TDYUI nashriyoti, 2009.
32. Muminov E.A. Modernizatsiya grajdanskogo obshchestva v Respublike Uzbekistan i Korolevstve Ispaniya. - T.: IPTD imeni G. Gulyama, 2011.
33. Odilkoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. - T.: SHark, 2002.
34. Navoiy A. Maxbub ul-kulub. - T.: Adabiyot va san’at, 1988.
35. Navoiy A. Saddi Iskandariy - T.: Adabiyot va san’at, 1978.
36. Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyarul-muluk- T.: Adolat, 1997..
37. Platon. Gosudarstvo// Platon. Soch. v 3-x tomax. T. 3. Chast I. M., 1971.
38. Raxmanov A. Grajdanskoe obshchestvo: dostijeniya, problemi, perspektivi: uchebnoe posobie. - T.: Akademiya, 2007.
39. Tokvil A. Demokratiya v Amerike. - M.Izvestie, 1992.
40. Temur tuzuklari. B. Axmedov taxriri ostida- T.: G.Gulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
41. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
42. Sitseron. Dialogi. O gosudarstve. O zakonax - M.: Nauka, 1966.
43. YUsuf Xos Xojib kutadgu bilig. - T.: Fan. 1971.
44. Kaykovus. Kobusnoma. - T.: Meros, 1992.
45. Tolibov I.I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy prinsiplari va funksiyalari / Red. A.X. Saidov. - T.: Inson xukuklari buyicha O’zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2008.
46. Usmanov M. Uzbekistan-po puti k silnomu grajdanskomu obshchestvu: tendensii i perspektivi / M.Usmanov, A. Saidov. - Tashkent: Vnesh Invest Prom, 2014.
47. O’zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O’quv qullanma / T. Dustjonov, M. Mirxamidov, S. Xasanov. - T.: Iqtisod - Moliya, 2006.
48. Utamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lugati. - T.: Turon-Zamin, 2017. 19,5 b.t.
49. Utamurodov A. Fuqarolik jamiyati g’oyalar evolyusiyasi. - T.: Adabiyot uchkunlari, 2018. 12 b.t.
50. Faktori razvitiya grajdanskogo obshestva i mexanizmi ego vzaimodeystviya s gosudarstvom / pod red. L.I. Yakobsona. — M.: Vershina, 2008.
51. Xasanov R., Utamuradov A. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. Uslubiy qullanma. - T.: 2016. 14 b.t.

52. V. Desker and M. N. M. Osman.S Rajaratnam on Singapore: from ideas to reality.— Singapore: World Scientific Publishing, 2006.
53. Baker G. 2002. Civil Society and Democratic Theory: Alternative Voices.
54. O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass:Tufts University Press, 1999.
55. Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns 1 lopkins U.P., - 1997. - P.239-262.
56. Walzcr M. Concept of Civil Society - Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society.Providence RI: Berghahn Books. 1995.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.press-service.il/
2. www.zivoncl.u/
3. www.xs.uz
4. www.nimfogo.il/
5. www.xdp.uz/
6. www.adolat.uz/
7. www.uzlidep.uz/
8. www.millivtiklanisli.u/U
9. www.ngo.uz
10. www.mahalla.